

**“O’ZBEKISTON SAYYOHLIGIDA MILLIYLIKNI TARG’IB QILISH”**

***Tursunova Nigora Agzam qizi***

*Turizm yo’nalishi talabasi, Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti*

*Toshkent, O’zbekiston*

[Nigorakhon.tursunovaa@gmail.com](mailto:Nigorakhon.tursunovaa@gmail.com)

*ORCID: 0009-0002-4719-4714*

***Karimova E’zoza Sanjar qizi***

*Turizm yo’nalishi talabasi, Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti*

*Toshkent, O’zbekiston*

[tajibayevaезоza@gmail.com](mailto:tajibayevaезоza@gmail.com)

*ORCID: 0009-0001-7701-7033*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O’zbekiston sayyoohlida milliylikni targ’ib qilishning dolzarbligini tahlil qiladi. Milliy madaniyatni sayyoohlilik orqali targ’ib etish tarixiy merosni saqlash, sayyoohlar e’tiborini jalg qilish va iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, ekoturizm va milliy an’analarga hurmat alohida urg‘u bilan yoritiladi. Ekoturizm yordamida tabiiy va madaniy resurslarni saqlash, sayyoohlarni barqaror rivojlanishga jalg qilish imkoniyati ko’rsatilgan. Sayyoohlar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish ham maqolaning muhim qismidir, bu orqali o‘zbek madaniyatini sayyoohlarga chuqurroq taqdim etish mumkin. AR/VR texnologiyalari va raqamlili platformalarning qo’llanilishi esa milliylikni global darajada tanitishda muhim omil sifatida baholanadi.

**Abstract:** This article analyzes the relevance of promoting nationalism in Uzbek tourism. Promoting national culture through tourism serves to preserve historical heritage, attract tourists, and strengthen economic stability. The article also highlights ecotourism and respect for national traditions. The opportunity to preserve natural and cultural resources and attract tourists to sustainable development is shown through ecotourism. Establishing proper communication with tourists is also an important part of the article, through which Uzbek culture can be presented to tourists



*in a deeper way. The use of AR/VR technologies and digital platforms is considered an important factor in promoting nationalism on a global scale.*

**Аннотация:** В данной статье анализируется актуальность продвижения национализма в узбекском туризме. Продвижение национальной культуры через туризм служит сохранению исторического наследия, привлечению туристов и укреплению экономической стабильности. В статье также подчеркивается экотуризм и уважение к национальным традициям. Возможность сохранения природных и культурных ресурсов и привлечения туристов к устойчивому развитию показана через экотуризм. Установление правильной коммуникации с туристами также является важной частью статьи, посредством которой узбекская культура может быть представлена туристам более глубоко. Использование технологий AR/VR и цифровых платформ считается важным фактором продвижения национализма в глобальном масштабе.

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston turizmi, milliylikni targ'ib qilish, madaniy meros, sayyoqlik va madaniyat, ekoturizm, milliy an'analar, xalq hunarmandchiligi, milliy taomlar festivali, sayyoqlar bilan muloqot, raqamli texnologiyalar, barqaror turizm, madaniy tadbirlar, raqamli platformalar.*

**Keywords:** *Uzbek tourism, promotion of nationality, cultural heritage, tourism and culture, ecotourism, national traditions, folk crafts, national food festival, communication with tourists, digital technologies, sustainable tourism, cultural events, digital platforms.*

**Ключевые слова:** узбекский туризм, пропаганда национальности, культурное наследие, туризм и культура, экотуризм, национальные традиции, народные ремесла, фестиваль национальной еды, коммуникация с туристами, цифровые технологии, устойчивый туризм, культурные мероприятия, цифровые платформы.

**Adabiyotlar tahlili:** Ushbu maqolani yozishda jahon yozuvchilaridan Henderson, J. C; MacCannell, D; Richards, G; Honey, M; Smith, M. K., & Duffy, R; Richards, G., & Wilson, J; Abdelrahman, A. S., Salem, A. E., & Mohamed, S. A,



Basheer, A. M., Al-Abdullatif, A. A., & Al-Hashem, A. A va o'zbek yozuvchilaridan Karimov, S; Ahmedov, F., & Rakhimova, N larning yozgan ishlaridan foydalaniqilgan.

**Kirish:** Bugungi global turizm bozori tobora raqobatlashib borar ekan, har bir mamlakat o'zining noyob madaniy merosi va milliy qadriyatlarini targ'ib qilish orqali sayyoohlarni jalg etishga intilmoqda. O'zbekiston esa boy tarixiy o'tmishi, qadimiy shaharlar va ko'p asrlik urf-odatlari bilan alohida o'rinni egallaydi. Ayniqsa, milliylikni turizm sohasida ilgari surish orqali mamlakat o'zining madaniy identitetini saqlab qolish va uni global miqyosda tanitish imkoniyatiga ega bo'ladi. Milliylikning sayyoohlikda targ'ib qilinishi nafaqat xorijiy sayyoohlarning qiziqishini oshiradi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va madaniy merosning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu maqola O'zbekistonda milliylikni targ'ib qilishning zamonaviy yo'llarini — xalq hunarmandchiligi, ekoturizm, madaniy tadbirlar, raqamli texnologiyalar va xalqaro muloqot orqali amalga oshirilayotgan tashabbuslarni tahlil qiladi. Shu orqali milliylikning turizmga integratsiyasi bo'yicha mavjud imkoniyatlar va istiqbollar ochib beriladi.

**Metodologiya:** Maqolada O'zbekiston turizmida milliylikni targ'ib qilishning dolzarbliji va istiqbollarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan, shuningdek, mavzuni yoritishda bir nechta taddiqot yondashuvlari uyg'unlashtirildi. Avvalo, deskriptiv<sup>1</sup> metod asosida mavjud holat – O'zbekistonda milliy madaniyatni sayyoohlik orqali targ'ib qilishning mavjud shakllari, tajribalari va rasmiy strategiyalari tahlil qilinadi. Bu orqali madaniy turizmnинг real ko'rinishlari va jarayonlari asosli faktlar bilan tasvirlab beriladi.

Bundan tashqari, analistik metod yordamida milliylik va sayyoohlik o'rtasidagi bog'liqlik, ekoturizm, muloqot madaniyati va raqamli texnologiyalarning samaradorligi baholanadi. Bu yondashuv orqali milliy qadriyatlarni sayyoohlik faoliyatiga integratsiyalash vositalari va ularning ijtimoiy-madaniy ta'siri chuqur tahlil qilindi.

Maqolada statistik dalillarning ishonchlilagini oshirish maqsadida 2023–2024-yillardagi so'nggi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu raqamlar turizmda

<sup>1</sup> ta'rifiy



milliylikning o'sib borayotgan o'rnini asoslashda asosiy dalil sifatida ishlatildi. . Shu bilan birga, Prezidentimiz ta'kidlaganidek [1], "Turizm sohasi orqali milliy qadriyatlarimizni namoyon etish, nafaqat mamlakatimiz iqtisodiyotiga foyda keltiradi, balki xalqaro miqyosda O'zbekistonning madaniy brendini shakllantiradi." degan fikr mazkur metodologiyaning nazariy poydevoridir.

**Asosiy qism:** Zamonaviy turizm sohasi bugungi kunda nafaqat diqqatga sazovor joylarni ko'zdan kechirish, balki madaniy identitetni anglash va milliy o'zlikni chuqurroq tushunish vositasiga aylanmoqda. Milliy identitet<sup>2</sup> (national identity) degan tushuncha turistik tajribaning mazmuniy qismiga aylanishi orqali sayyoohlarning faqat tashqi tomosha emas, balki ma'naviy boylikni ham o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Bu holat O'zbekiston singari ko'p asrlik tarixga ega mamlakatlar uchun dolzarbdir. Henderson aytganidek: - "sayyoqlik milliy identitetni uzatish va mustahkamlashning kuchli vositasi bo'lib, ko'pincha mamlakatning tashqi dunyodagi imidjini shakllantirish uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi [2]. Milliylik — bu xalqning tarixiy tajribasi, go'zallikka oid qarashlari hamda madaniy merosini aks ettiruvchi ijtimoiy shakllanishdir, uni turizm orqali targ'ib etish, mamlakatni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Madaniy turizm doirasida milliylik omili noyoblik va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy tarkibiy qism sifatida e'tirof etiladi. Madaniy turizm jamiyatlar va shaxslar uchun identitetni shakllantirish vositasi sifatida tobora ko'proq qaralmoqda, bunda autentiklik va o'ziga xoslik asosiy boyliklar sifatida ta'kidlanadi[3].

Shuningdek, O'zbekistonda milliylikni targ'ib qilish doirasida xalq hunarmandchiligi, milliy taomlar, folklor san'ati va an'anaviy mehmondo'stlik kabi elementlarning sayyoohlarga vizual va interaktiv tarzda yetkazilishi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sayyoohlар shunchaki hordiq emas, balki boshqa madaniyatlarning asl mohiyatini ochib beradigan 'autentik'<sup>3</sup> tajribalar bilan chuqurroq aloqani izlaydilar[4].

Shu qatorda, o'zbek ipagi, milliy liboslari va O'zbekistonning an'anaviy bezaklarini keng targ'ib etish maqsadida jahonning mashhur kutyurye va moda uylari

<sup>2</sup> Milliy o'ziga xoslik

<sup>3</sup> haqiqiy



bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ishlarini olib borishmoqda. Milliylik asosida shakllangan turistik mahsulot boshqa bozorlardan ajralib turadi, u o'zining intellektual kapitali va emotsiyonal jozibadorligi bilan sayyoohlarni qayta-qayta jalg' etadi. Shu bilan birga, bu yo'nalish iqtisodiy foydali bo'lib, mahalliy aholi bandligini oshirish va barqaror turizm asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ekoturizmning asosiy tamoyillaridan biri — "autentic experience" taqdim etish bo'lib, sayyoohlarga haqiqiy madaniy muhitni his qilish imkonini beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, "Ekoturizm sayohatchilarni mahalliy jamoalar bilan muloqot qilishga undaydi va an'anaviy amaliyotlarga hurmat uyg'otadi" deb hisoblashadi [5].

Shuningdek, host-guest interaction konsepsiysi doirasida, sayyoohlarni mahalliy aholining madaniy almashinushi sayyoohlilik tajribasining eng muhim jihatlaridan biriga aylanmoqda. Mualliflarning ta'kidlashicha, "Bunday muloqotlar sayyoohlarga faqat ko'ngilochar emas, balki chuqur madaniy anglash va o'zaro tushunishni ham taqdim etadi" [6].

O'zbekistonda tashkil etilayotgan ekologik festivallar, mahalliy hunarmandchilik ko'rgazmalari va milliy taomlar tanlovi kabi tadbirlar sayyoohlarni uchun milliy an'analar va ekologik qadriyatlar o'rtasida mustahkam bog'liqlik yaratmoqda. Natijada, O'zbekiston milliy turizm brendi sifatida nafaqat tarixiy obidalari, balki tirik madaniy merosi orqali ham global maydonda o'z o'rmini mustahkamlab bormoqda. O'zbek xalqining mehmondo'stligi, milliy kiyim-kechak, marosimlar, an'anaviy hunarmandchilik — bularning barchasi sayyoohlarni uchun unutilmas tajribaga aylanadi. Muhim terminlardan biri bu "kultural barqarorlik"<sup>4</sup> bo'lib, u madaniy qadriyatlarni turizm orqali asrash va yangi avlodga yetkazish g'oyasini bildiradi. Bu borada, masalan, Boysun tumanida xalq og'zaki ijodiyoti va an'anaviy hayot tarzi asosida tuzilgan turistik yo'nalishlar mavjud. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-102-son [Farmoniga](#) [7] ko'ra "Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish yo'l xaritasi jadvali" bo'yicha qator chora tadbirlar yo'lga qo'yilmoqda.

<sup>4</sup> Madaniy barqarorlik



O'zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlar soni kundan kunga ortmoqda. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 18,8 foizga oshgan.(1-jadval)[8]



1-jadval. Turistlar soni

Miliylikni samarali tarzda targ'ib qilishda muloqot – ya'ni, interaktiv madaniy aloqalar jarayoni – eng muhim omillardan biridir. Sayyoohlar o'zga davlatga tashrif buyurganida, ular nafaqat tarixiy obidalarni, balki mahalliy xalqning yurish-turishi, til uslubi, madaniy muomalasi orqali ham milliy qadriyatlar bilan tanishadi.

Sayyoohlar bilan muloqotda madaniy yetakchilik va madaniy vositachilik (cultural mediation)<sup>5</sup> kabi yondashuvlar ahamiyatli hisoblanadi. Masalan, gidlar va mehmonxona xodimlarining professional tayyorgarligi, ularning xalqona iboralar, tarixiy lavhalar, milliy urf-odatlar haqida to'g'ri va ta'sirchan axborot bera olishi, sayyoohlar tomonidan milliylikni chinakam his qilishiga yordam beradi [9].

<sup>5</sup> madaniy vositachilik, madaniylatlarni tushuntirib beruvchi muhit



Turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi xodimlar uchun madaniyatlararo kompetensiya<sup>6</sup> darajasini oshirish, ayniqsa ko'p millatli va globallashayotgan turistik makonlar sharoitida zaruriy vositaga aylanmoqda. Bu borada turizm sohasidagi etnokommunikatsiya<sup>7</sup> modeli asosida trening va o'quv dasturlari tashkil etilishi mumkin [10]. Shuningdek, "muloqot orqali taqdimot" yondashuvi samarali vosita sifatida maydonga chiqadi. Bu yondashuvga ko'ra, sayyoohlar uchun faqat tayyor ma'lumot emas, balki ular bilan birgalikda faoliyat olib borish – masalan, milliy taom tayyorlashda ishtirok etish, milliy libos kiyib ko'rish, xalq o'yinlarida qatnashish orqali milliylik yanada chuqurroq anglanadi. Aynan shunga, Rossiyada o'tkaziladigan "**Времена и эпохи**" [11] festivali — milliy tarix va madaniy qadriyatlarni ommaga taqdim etishga xizmat qiladigan yorqin tadbirni misol bo'la oladi. Ushbu festival davomida ishtirokchilar o'z xalqlarining o'ziga xos an'analari va tarixiy davrlarini jonlantirib, mehmonlarga o'z milliy meroslarini his etish imkonini beradilar.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, sayyoohlar eng ko'p eslab qoladigan va baho beradigan jihatlardan biri — bu mahalliy aholi bilan bo'lgan insoniy aloqalardir [12]. Shu bois, muloqot nafaqat axborot vositasi, balki madaniy ta'sirchanlikni oshiruvchi, turistik tajribani boyituvchi vosita hisoblanadi.

Bugungi raqamli davrda O'zbekistonning boy madaniy merosini global miqyosda tanitish uchun zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli platformalar, virtual sayohatlar va AR/VR<sup>8</sup> texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonning madaniy va tarixiy boyliklarini raqamli platformalar orqali taqdim etish orqali sayyoohlar interaktiv tarzda ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Mobil ilovalar va veb-saytlar yordamida foydalanuvchilar O'zbekistonning qadimiyligi obidalarini, xalq hunarmandchiligi, milliy oshxona va urf-odatlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu holat sayyoohlarning tajribasini yanada boyitadi va o'zgacha bir tajribaga ega bo'lishlariga imkon yaratadi.

Virtual sayohatlar esa sayohat qilish imkoniyati cheklangan sharoitlarda ham, masofaviy ravishda O'zbekistonning diqqatga sazovor joylarini ko'zdan kechirish

<sup>6</sup> madaniyatlararo muomala yuritish malakasi

<sup>7</sup> millatlararo madaniy muloqot shakli

<sup>8</sup> AR- augmented reality/ VR- virtual reality



imkonini beradi. 360° darajali videolar va 3D modellashtirish texnologiyalari orqali sayyoohlар virtual sayohatlarni milliylik ruhida his etishadi, bunday turlar sayyoohlik tajribasini jonlantiradi va ta'sirchan qiladi. Misrning Luksor shahrida virtual reallik texnologiyalari yordamida tarixiy joylarni targ'ib qilishning muvaffaqiyatli tajribasi bunga misol bo'la oladi[13].

AR/VR texnologiyalari orqali qadimiylarini interaktiv tarzda "jonlantirish" va madaniy merosni saqlashda muhim rol o'yнaydi. Ular yordamida madaniy meros ob'ektlarini interaktiv tarzda namoyish etish, sayyoohlар uchun yanada chuqurroq tajriba yaratish imkonini beradi[14] Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy urf-odatlarni targ'ib qilish ham samarali usullardan biri bo'lib, bu orqali xalqning boy madaniyatini va tarixini dunyoga tanitish mumkin. Bu borada Nur Parpiyevning kun.uz saytida bergen takliflari mutlaqo yechim bo'la oladi[15].

**Natijalar:** O'zbekistonda milliylikni sayyoohlilik orqali targ'ib etish so'nggi yillarda barqaror rivojlanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekoturizm va madaniy turizm sayohatchilarni nafaqat tabiiy go'zalliklar bilan, balki xalqning qadimiylarini bilan tanishtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli platformalar va AR/VR texnologiyalari esa milliy merosni interaktiv va zamonaviy shakllarda taqdim etishga imkon bermoqda. Mahalliy hunarmandchilik, milliy taomlar va folklor an'analari orqali O'zbekiston o'z turistik brendini mustahkamlab bormoqda. Ekoturizm amaliyotida barqaror rivojlanish tamoyillari va madaniy almashinuv ("host-guest interaction") tushunchasi asosiy o'rinni egallamoqda.

**Xulosa:** Milliylikni sayyoohlilik faoliyatida targ'ib qilish O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy foyda, balki madaniy merosni saqlash va global maydonda milliy o'zlikni namoyon etish imkoniyatini yaratmoqda. Ekoturizm va madaniy turizm yo'nalishlarining kengayishi sayyoohlarga O'zbekiston madaniyatining o'ziga xos jihatlarini teranroq anglash imkonini bermoqda. Raqamli texnologiyalar milliy qadriyatlarni dunyo auditoriyasiga tez va samarali yetkazish imkonini oshirmoqda. Kelgusida sayyoohlilik sohasida milliylikni yanada chuqurroq targ'ib qilish orqali xalqaro turizm bozorida O'zbekistonning o'ziga xos o'rni mustahkamlanishi kutilmoqda.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, SH. (2022, p. 83). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2. Henderson, J. C. (2009). Cultural heritage and tourism in the developing world: A regional perspective. Routledge.
3. MacCannell, D. (1976). The Tourist: A New Theory of the Leisure Class. University of California Press.
4. Richards, G. (2007). Cultural tourism: Global and local perspectives. Haworth Press.
5. Honey, M. (2008). *Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise?* (2nd ed.). Island Press.
6. Smith, M. K., & Duffy, R. (2003). *The Ethics of Tourism Development*. Routledge.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagি PF-102-son farmoni <https://www.lex.uz/uz/docs/-7031233>
8. [https://t.me/statistika\\_rasmiy/5255](https://t.me/statistika_rasmiy/5255)
9. Karimov, S. (2022). Madaniy meros va turizm sohasida kommunikatsiya masalalari. Toshkent: Turizm va Madaniy Meros Instituti nashriyoti.
10. Ahmedov, F., & Rakhimova, N. (2021). Etnokommunikatsion yondashuvlar turizmda. Samarqand: "Silk Road" ilmiy jurnali.
11. [https://youtu.be/5u0-3lzDsOs?si=TLBYuk5\\_0tBEwBsg](https://youtu.be/5u0-3lzDsOs?si=TLBYuk5_0tBEwBsg)
12. Richards, G., & Wilson, J. (2006). Developing creativity in tourist experiences: A solution to the serial reproduction of culture? *Tourism Management*, 27(6), 1209–1223. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2005.06.002>
13. Abdelrahman, A. S., Salem, A. E., & Mohamed, S. A. (2022). Virtual reality as a tool to promote cultural heritage tourism: The case of Luxor, Egypt. *International Journal of Tourism and Hospitality Management*, 5(1), 100-117.
14. Basheer, A. M., Al-Abdullatif, A. A., & Al-Hashem, A. A. (2023). Exploring culture and heritage through immersive AR/VR technologies in tourism. In *Exploring Culture and Heritage Through Experience Tourism* (pp. 121-136). IGI Global.



15. <https://kun.uz/news/2018/08/21/vatanim-uzbekiston-pokiston-emas-eki-millij-turizmni-rivozlantiris-nimalarga-boglik>